

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/30.12.2019.K.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**NAYIMOVA BAHORA KOMILJONZODA**

**MELISSA O‘SIMLIGIDA EFIR MOYLARINING HOSIL BO‘LISH**  
**KINETIKASINI GX-MS USULIDA O‘RGANISH**

**02.00.04 – Fizik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI**  
**AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Nayimova Bahora Komiljonzoda**

Melissa o‘simligida efir moylarining hosil bo‘lish kinetikasini GX-MS usulida o‘rganish ..... 3

**Найимова Бахора Комилжонзода**

Изучение кинетики образования эфирных масел у растения Мелисса методом GX-МС ..... 21

**Nayimova Bahora Komiljonzoda**

Study of the kinetics of essential oil formation in Melissa plant using the GC-MS method ..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 42

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/30.12.2019.K.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**NAYIMOVA BAHORA KOMILJONZODA**

**MELISSA O‘SIMLIGIDA EFIR MOYLARINING HOSIL BO‘LISH**  
**KINETIKASINI GX-MS USULIDA O‘RGANISH**

**02.00.04 – Fizik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI**  
**AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/K766 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNET» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Muxamadiyev Nurali Qurbonaliyevich  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Eshmamatova Nodira Baxramovna  
kimyo fanlari doktori, dotsent  
Matchanov Alimjan Davlatbayevich  
kimyo fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** O'zR FA, akd. S. Yunusov nomidagi O'simlik  
moddalar kimyosi instituti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.K.02.05 Ilmiy kengashning 2025-yil «29» may soat 13:00 dagi yig'ilishida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Biokimyo instituti, Kimyo binosi. Tel.: (+99866) 239-12-47, faks: (0366) 239-11-40, e-mail: devonxona@samdu.uz.

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (41 -raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-51).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «19» may kuni tarqatildi.  
(2025-yil «19» may dagi № 3 raqamli reyestr bayonnomasi).



  
A.M. Nasimov  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, t.f.d., professor

  
J.R. Uzokov  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash kotibi, PhD

  
O.N. Ro'zimuradov  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, k.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda ajratish, sifat va miqdoriy analiz hamda tadqiqot usuli sifatida xromatografiya XX asrning buyuk kashfiyoti sifatida e'tirof etilgan. Moddalarni toza holda ajratish va ko'p komponentli murakkab aralashmalar analizida uning o'rnini beqiyos. Bugungi kunda kimyo, neftkimyo, farmatsevtika, ekologiya, tibbiyot sohalaridagi murakkab tarkibli sintetik va tabiiy aralashmalar analizi GC-MS (gaz xromatografiya – mass spektrometriya) usulida bajarilmoqda. Shuningdek, xromatografiya uchun asbob-uskunalar ishlab chiqarish sanoati eng foydali tarmoqlardan biriga aylandi. Xromatografik ajralish jarayonlarining uzluksiz borishi esa avtomatlashtirish imkoniyatini yaratgan. Shu bilan birga, usulni takomillashtirish, uning yangi variantlarini ishlab chiqish va qo'llanilish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha ishlar o'zining ahamiyati yuqoriligi bilan diqqatga sazovor.

Jahonda xromatografik jarayonlarning nazariy asoslarini ishlab chiqilgan, ularni modellashtirish va maqbullashtirish borasida talaygina yutuqlarga erishilgan. Bu borada olib borilgan tadqiqotlar natijasida xromatografik jarayonlarning aniq va samarali modellari yaratilgan hamda xromatografiya sohasidagi ko'plab muammolar hal etilgan. Jumladan, o'simliklar tarkibidan ajratilgan efir moylari tarkibidagi biologik faol moddalar ilmiy asosda o'rganilib, ularning kimyoviy tarkibi va terapevtik xususiyatlari baholangan. Xromatografik jarayonlarning diffuziyaga asoslangan turli modellari ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularning aksariyati qo'zg'almas faza va aralashma tarkibidagi komponentlar o'zaro ta'sirini hisobga olmaydi. Shu sababli, kross-diffuziya modeli ushbu o'zaro ta'sirlarni inobatga olgan holda aniq modellashtirish imkoniyatini yaratish nuqtai nazaridan tadqiqotchilar e'tiboridadir.

Respublikamizda xromatografik jarayonlarni modellashtirish va maqbullashtirish, murakkab tarkibli sintetik va tabiiy birikmalar analiz usullarini yaratish, tibbiyotda diagnostik me'zonlarni ishlab chiqish, efir moylari tarkibini o'rganish borasida talaygina ishlar qilingan. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida<sup>1</sup> «mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish, prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash» bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek bu borada 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining yettita ustuvor yo'nalishiga muvofiq aholiga tibbiy xizmat kuratish darajasini yangi bosqichga ko'tarishda «Kimyo va gaz-kimyosi sohalarini rivojlantirish va tabiiy gazni qayta ishlash darajasini 8 foizdan 20 foizga yetkazish.»<sup>2</sup> kabi vazifalar belgilangan. Shu boisdan xromatografik jarayonlarni kross-diffuziya yordamida modellashtirish, ajralish jarayonlarini maqbullashtirish, efir moylari analizi sharoitlarini aniqlashda qo'llash hamda

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasiga to'g'risida»gi Farmoni.

efir moylarining o‘simlik organizmida to‘planish kinetikasini o‘rganish dolzarb muammolardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 29-avgustdagi PQ3246-sonli “Kimyo sanoati tashkilotlarining eksport-import faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 17-yanvardagi PQ-3479-son “Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining talab yuqori bo‘lgan mahsulot va xomashyo turlari bilan barqaror ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-sonli “Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investisiyaviy jozibadorligini oshirish choratadbirlari to‘g‘risida” gi hamda 2021-yil noyabrdagi qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII “Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq holda bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Xromatografiya usullarining nazariy asoslari va ularning turli maqsadlarda, jumladan, moddalarni ajratishda, murakkab tarkibli sintetik va tabiiy birikmalar analizida hamda fizik-kimyoviy tadqiqot usuli sifatida qo‘llanilishi bo‘yicha talaygina ishlar amalga oshirilgan. Bu boradagi tadqiqotlarni amalga oshirishda Nobel mukofoti sovrindorlari M. S. Svet, J. Martin va R. Sing, E. N. S. Mur, V. X. Shteyn, E. Klesper, A. X. Korvin, T. B. Gapon, A. V. Kiselev, Ya. I. Yashin, V. A. Davankov, O. A. Shpigun, K. I. Sakodinskiy, V. G. Berezkin, V. N. Lipavskiy va boshqalar katta hissa qo‘shgan. Natijada xromatografik jarayonlarni belgilovchi gidrodinamik, sorbsion, diffuzion va boshqa hodisalar bo‘yicha modellar ishlab chiqilgan hamda ularning adekvatligi baholangan. Xromatografiya usullarining turli tabiatga ega bo‘lgan murakkab tarkibli tabiiy va sintetik birikmalarni analiz qilishda qo‘llanishi, shuningdek, fizik-kimyoviy tadqiqot usuli sifatida sorbentlarning tekstur, termodinamik va boshqa xarakteristikalarini o‘rganish bo‘yicha muhim natijalarga erishilgan.

Bu boradagi ishlarni amalga oshirishda mamlakatimizda olib borilgan ishlar ham diqqatga sazavordir. Jumladan, N. S. Zakirov, E. Oripov, X. Sh. Xusainov, N. Q. Muxamadiev, E. A. Abduraxmonov, X. Shoxidoyatov, Q. M. Murodov, I. Ergashov, N. Mukarramov va boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida katalitik sintez mahsulotlarini analiz qilish metodikasi ishlab chiqilgan, sian guruhi saqlovchi qo‘zg‘almas fazalarning xromatografik xarakteristikalari o‘rganilgan, xromatografiyada modellar va maqbullashtirishning empirik hamda yarim empirik usullari ishlab chiqilgan, murakkab tarkibli tabiiy va sintetik aralashmalarni ajratishning maqbul sharoitlari aniqlangan, patologik jarayonlarni tashxislash mezonlari ishlab chiqilgan.

Shu bilan birga, “sorbent-sorbent” tizimi komponentlarining o‘zaro ta‘sirini hisobga oluvchi modellar hali yaratilmagan, shuningdek, efir moyli o‘simliklar

organizmda efir moylarining to‘planish kinetikasi yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu sababli xromatografik jarayonlarda kross-diffuziya modelidan foydalanish, uni murakkab tarkibli aralashmalar, jumladan, efir moylari komponentlarini ajratish sharoitlarini maqbullashtirishda qo‘llash hamda o‘simliklar organizmda efir moylarining to‘planish kinetikasini o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlar rejasidagi “Tabiiy va sintetik materiallarni sintez qilish, tekshirish va qayta ishlashning yangi usullari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** xromatografik jarayonlarda kross-diffuziyani qo‘llab, modellashtirish hamda Melissa o‘simligida efir moylarining hosil bo‘lishi kinetikasini GC-MS usuli yordamida baholashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

xromatografik ajratish jarayonlarini kross-diffuziyani qo‘llab, modellashtirish va uning adekvatligini baholash;

kross-diffuziya modelini murakkab tarkibli aralashmalar komponentlarini ajratishni maqbullashtirishda qo‘llash imkoniyatini baholash;

Melissa o‘simligi tarkibida efir moylarining hosil bo‘lishi kinetikasi modellarini ishlab chiqish;

Melissa o‘simligida efir moylarining hosil bo‘lishi kinetikasini GC-MS usulida o‘rganish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida xromatografik ajratish jarayonlari va Melissa Officinalis L., Mediasia Macrophylla Pimen, Lavandula Angustifolia o‘simligidan ajratib olingan efir moylari.

**Tadqiqotning predmetini** murakkab tarkibli aralashmalarni ajratishda kross-diffuziya ta‘sirini modellashtirish usullari, kolonkada ajratish jarayonining matematik modeli, shuningdek, Melissa officinalis L., Mediasia macrophylla Pimen, Lavandula angustifolia o‘simliklaridan ajratib olingan efir moylarining kimyoviy tarkibi, ularning hosil bo‘lish kinetikasi va tarkibiy komponentlarining to‘planish dinamikasi hamda efir moylarining tarkibiy qismlarining adsorbsiyasi va ularning termodinamik xususiyatlari o‘rganilgan.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida GC-MS usuli, fizik-kimyoviy tadqiqotlar, kinetik analiz, matematik model yaratish, hamda statistik tadqiqot usullari qo‘llanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Xromatografik ajratish jarayonlarini tadqiq qilishda ilk marta kross-diffuziya asosida matematik model ishlab chiqilgan va uning adekvatligi tajriba natijalari bilan muvofiq kelishi isbotlangan;

kross-diffuziya modelining murakkab tarkibli aralashmalar komponentlarini ajratish sharoitlarini maqbullashtirishda qo‘llash imkoniyatlari baholangan va tajriba natijalariga nisbatan chetlanishi 2,5-3,0 % dan oshmasligi tasdiqlangan;

GC-MS usulida Melissa officinalis L., Mediasia macrophylla Pimen va Lavandula angustifolia o‘simliklarining efir moylari tarkibida mos ravishda 20, 25 va 34 ta

kimyoviy komponentlar aniqlangan hamda ularning ba'zilar (lyonalol,  $\alpha$ -pinen,  $\beta$ -kariofillen, sitral va boshqalar) shartli patogen bakteriyalarga nisbatan yuqori darajadagi antibakterial faollikka ega ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan;

Melissa o'simligi tarkibida efir moylari ayrim komponentlarining hosil bo'lishi kinetikasining modellari ishlab chiqilgan, hamda ularning hosil bo'lishi fermentativ reaksiyalar kinetikasiga mos kelishi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

kross-diffuziya asosida xromatografik ajratish jarayonlarini modellashtirish metodikasi ishlab chiqilgan;

kross-diffuziya modelini qo'llab, Melissa o'simligi tarkibidagi efir moylarining asosiy komponentlarini ajratish sharoiti maqbullashtirildi hamda xromatogrammani shakllantirishning dasturi yaratilgan;

GC-MS usulida efir moylarni aniqlash va ularning hosil bo'lish jarayonlari kinetikasini nazorat qilish metodikasi ishlab chiqilgan;

Melissa o'simligi tarkibidan ajratib olingan efir moyining foydali komponentlarini to'planishi bo'yicha o'simlikni terish vaqti bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi:** tadqiqot natijalarining ishonchliligi va aniqligi qo'llanilgan zamonaviy metod va usullar bilan ta'minlandi. Dissertatsiya doirasida GC-MS usuli yordamida kimyoviy tarkibni aniqlash, fizik-kimyoviy tadqiqotlar asosida moddalarning xos xususiyatlarini o'rganish, kinetik analiz orqali reaksiya jarayonlarini analiz qilish amalga oshirildi. Shuningdek, matematik modellar jarayonlarni to'g'ri tasvirlash va prognozlashda samarali qo'llanildi, statistik analiz usullari esa natijalarning ishonchliligini tasdiqlashda muhim rol o'ynadi. Bu elementlar birgalikda tadqiqot xulosalarining ilmiy asoslangan va qayta tekshirish mumkinligini ta'minladi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda kross-diffuziya yondashuvidan foydalanib, xromatografik ajratish jarayonlarining modeli ishlab chiqilgan, uning adekvatligi baholangan, kross-diffuziya modelining murakkab tarkibli aralashmalar komponentlarini ajratish jarayonini maqbullashtirishdagi imkoniyatlari va Melissa o'simligi tarkibida efir moylarining hosil bo'lish kinetikasini modellashtirish asosida ularning to'planish kinetikasi aniqlangan hamda xromatografik jarayonlarning fizik-kimyosi bo'yicha yangi bilimlar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, kross-diffuziya modeli asosida xromatografik ajratish jarayonlarining tezligi va aniqligi yaxshilangan, kross-diffuziya modelidan foydalanib, Melissa o'simligi tarkibidagi efir moylarining asosiy komponentlarini ajratish sharoitlari maqbullashtirildi, xromatogrammani shakllantirish dasturi ishlab chiqilgan, GC-MS usuli yordamida efir moylarni aniqlash va ularning hosil bo'lish jarayonlarini nazorat qilish metodikasi ishlab chiqilgan, shuningdek, Melissa o'simligi tarkibidan ajratib olingan efir moyi foydali komponentlarining to'planishi uchun optimal vaqt bo'yicha tavsiyalar berilgan hamda xromatografiya usullarining turli tabiatga ega bo'lgan murakkab aralashmalarni analiz qilishdagi qo'llash imkoniyatlari kengaytirilgan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Melissa o‘simligida efir moylarining hosil bo‘lish kinetikasini GC-MS usulida o‘rganish bo‘yicha olingan natijalar asosida: melissa o‘simligidan efir moyini ajratish texnologiyasi O‘zbekiston-Turkiya MCHJ ”Ahmad Isroil Tex” qo‘shma korxonaning “2025-2026 yillarda amaliyotga joriy etish bo‘yicha istiqbolli ishlanmalar ro‘yxati”ga kiritilgan (28/12-01 2024 yil “28” dekabr). Natijada Melissa o‘simligidan efir moyini ajratish texnologiyasi amaliyotga joriy etiladi, eksport o‘rnini qoplaydigan va importga yo‘naltirilgan mahsulot ishlab chiqariladi, hamda mahsulotga bo‘lgan ehtiyoj ma‘lum darajada qondiriladi.

melissa o‘simligidan ajratib olingan efir moyidan antiseptik suv tayyorlash texnologiyasi O‘zbekiston-Turkiya MCHJ “Ahmad Isroil Tex” qo‘shma korxonada amaliyotga joriy etilgan (28/12-02 2024 yil “28” dekabr). Natijada Melissa o‘simligidan ajratib olingan efir moyidan antiseptik suv tayyorlashga erishiladi, eksport o‘rnini qoplaydigan va importga yo‘naltirilgan mahsulot ishlab chiqariladi hamda mamlakatimizda mahsulotga bo‘lgan ehtiyoj ma‘lum darajada qondiriladi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 13 ta, jumladan 7 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma‘ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 7 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola respublikada, 4 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 111 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy hamda amaliy ahamiyati yoritilgan, natijalarni amaliyotga joriy etish masalalari, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

**Dissertatsiyaning “GC-MS YORDAMIDA EFIR MOYLARINING TADQIQOTI”** deb nomlangan **I bobi** adabiyotlar analiziga bag‘ishlangan bo‘lib, unda efir moylarini tadqiq qilishda GC-MS usulining o‘rni, ma‘lumotlarni qayta ishlash va analiz qilish jarayonlari, GC-MS usulida o‘lchash va ma‘lumotlarni yig‘ish, mass-spektr signalini qayta ishlash, ma‘lumotlarni moslashtirish hamda boshlang‘ich ma‘lumotlarni qayta ishlash bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, GC-MS natijalarida imzolarni aniqlash, ma‘lumotlarni analiz qilish, tasvirlarni aniqlash va ularni tasniflashning turli statistik usullari, namunani tanib olish algoritmlari, jarayonlarni ehtimoliy modellar asosida bashoratlash texnikasi, ko‘p kanalli ma‘lumotlarni qayta

ishlash usullari hamda xromatografiyada dasturiy ta'minotning asosiy bosqichlariga doir ilmiy ma'lumotlar umumlashtirilgan. Shu bilan birga, dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan.

**Dissertatsiyaning II bobi "Tadqiqot obyektlari va usullari"** deb nomlanib, unda efir moylari tarkibi va ularning yig'ilish kinetikasi gaz xromatografiya–mass-spektrometriya (GC-MS) usuli yordamida analiz qilingani bayon etilgan. Efir moylarini ajratish uchun gidrodistillatsiya usuli qo'llanilgan. Olingan natijalar GC-MS orqali analiz qilinib, asosiy tarkibiy qismlar identifikatsiya qilingan va ularning fenologik bosqichlarga bog'liq o'zgarishlari aniqlangan. Ajratish jarayonlarini optimallashtirish uchun ushlanish vaqti, gaz tezligi, nazariy tavaqchalar soni, selektivlik va ajratish samaradorligi kabi parametrlar baholangan. Bundan tashqari, termodinamik kattaliklar, xromatografik ushlanish parametrlari hamda efir moylarining tarkibiy va dinamik xususiyatlari tadqiq qilingan.

**Dissertatsiyaning "Kross-diffuziya modeli yordamida xromatografik ajratish jarayonini modellashtirish"** deb nomlangan **III bobida** efir moyi tarkibiy qismlarini gaz xromatografiyasi yordamida ajratish jarayonini modellashtirish uchun kross-diffuziya modeli ishlab chiqilgani bayon etilgan. Tadqiqotda harorat dasturlash, komponentlarning o'zaro ta'siri va ajratish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar, jumladan, kolonka uzunligi, gaz tashuvchi tezligi hamda harorat oshish rejimi analiz qilingan. Modellashtirish natijalari real xromatografik tajribalar bilan solishtirilib, asosiy komponentlarning kontsentratsiya profillari va ushlanish vaqtlari aniqlangan. Kross-diffuziyaning komponentlarning xromatografik ajralishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi tasdiqlanib, modellashtirish asosida ajratish jarayoni optimallashtirilgan.

**Kolonkada ajratish jarayonini modellashtirish uchun kross-diffuziya modeli.** Kolonkada ajratish jarayonini modellashtirish uchun kross-diffuziya tenglamalariga asoslangan matematik model ishlab chiqildi. Ushbu model kross-diffuziya o'zaro ta'sirlarini hisobga oladi va aralashma har bir komponentning vaqt va haroratga bog'liq harakatini tavsiflaydi.


Kross-diffuziya tenglamasi:

$$\frac{\partial C_i}{\partial t} + v \frac{\partial C_i}{\partial x} = D_{ii} \frac{\partial^2 C_i}{\partial x^2} + \sum_{j \neq i} D_{ij} \frac{\partial^2 C_j}{\partial x^2} - k_i(T(t))C_i, \quad (1)$$

bunda:  $C_i(x, t)$  - kolonkadagi  $i$  komponentning  $t$  vaqtdagi konsentratsiyasi;  $v$  - gaz tashuvchining tezligi;  $D_{ii}$  -  $i$  komponentning o'z-o'zini diffuziyalash koeffitsienti;  $D_{ij}$  -  $i$  va  $j$ - komponentlar orasidagi kross-diffuziya koeffitsienti;  $k_i(T(t))$  -  $T(t)$  haroratga bog'liq bo'lgan  $i$ -komponentning desorbsiya koeffitsienti.

Ushbu model gaz tashuvchi ta'sirida har bir komponentning kolonkadagi harakatini hamda diffuziya jarayonlari orqali komponentlarning bir-biriga o'zaro ta'sirini hisobga oladi.


Sonli modellashtirish asosida Melissa efir moyining asosiy komponentlari - limonen, sitral va geraniol uchun kapillyar kolonkasi bo'ylab kontsentratsiya profillari (xromatogrammalar) qurildi (1-rasm).



**1-rasm. Sonli modellashtirish natijasida olingan limonen, sitral va geraniol aralashmasi xromatogrammasi**

Modellashtirish xromatografik analiz parametrlarining Melissa efir moyi komponentlarini ajratishga ta'sirini baholash imkonini berdi. Harorat ko'tarilish tezligini 5°C/min dan 3°C/min gacha pasaytirish sitral va geraniolni ajratishni yaxshiladi, chunki ushlanish vaqti oshdi. Bu kross-diffuziya tufayli yuzaga kelgan piklarning birlashishini kamaytirishga imkon berdi. Geliy oqimi tezligini 1 ml/min dan 0,5 ml/min gacha kamaytirish limonen va sitral orasidagi ajratish sifatini yaxshiladi. Bu ushlanish vaqtining oshishi hisobiga yuz berdi.

Shuningdek, Melissa efir moyining asosiy komponentlari aralashmasini ajratish modellashtirildi va xromatogramma olindi (2-rasm).



**2-rasm. Melissa o'simligi efir moyining asosiy komponentlari xromatogrammasi**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kross-diffuziya o'zaro ta'sirlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan matematik model xromatografik ajratish jarayonini yuqori aniqlik bilan modellashtirish imkonini berdi. Eksperimental va sonli modellashtirish natijalari taqqoslanib, komponentlarning ushlanish vaqtlari hamda


xromatogrammadagi cho‘qqi shakllari muvaffaqiyatli hisobga olindi. Harorat dasturlash va gaz tashuvchi oqim tezligini optimallashtirish komponentlarni samarali ajratishga yordam berdi, ayniqsa qaynash harorati bir-biriga yaqin bo‘lgan birikmalar uchun.

Shunday qilib, kross-diffuziya o‘zaro ta’sirlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan matematik model xromatografik ajratish jarayonini tasvirlashda yuqori aniqlikni ko‘rsatdi. Melissa efir moyi komponentlarining o‘zaro ta’siri modellashtirishda ularning ushlanish vaqtlari va xromatogrammadagi cho‘qqi shakllarida muvaffaqiyatli hisobga olindi. Komponentlar orasidagi kross-diffuziya ajratish sifatiga, ayniqsa, qaynash harorati bir-biriga yaqin bo‘lgan komponentlar uchun sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Xromatografiya jarayonida qo‘llanilgan harorat dasturlash turli qaynash haroratlariga ega bo‘lgan komponentlarni samarali ajratishga imkon berdi. Harorat gradiyenti sekinroq bo‘lganda ( $3^{\circ}\text{C}/\text{min}$ ), komponentlar ushlanish vaqti ortib, piklarning bir-biriga yaqinligi kamaydi va ajratish sifati yaxshilandi. Kross-diffuziya modeli murakkab ko‘p komponentli aralashmalarni, jumladan, Melissa efir moyini analiz qilishda o‘z samaradorligini ko‘rsatdi.

Dissertatsiyaning **“Efir moylarining kimyoviy tarkibi, hosil bo‘lish kinetikasi va ularning adsorbsiya termodinamikasi”** deb nomlangan IV bobida Melissa officinalis L., Mediasia Macrophylla Pimen va Lavandula angustifolia o‘simliklaridan ajratilgan efir moylarining GC-MS analizi natijalari, ularning kimyoviy tarkibi, hosil bo‘lish kinetikasi va adsorbsiyasi termodinamikasi keltirilgan. Tadqiqotda Melissa officinalis L. efir moyining asosiy komponentlari sitral, geraniol va linalool bo‘lib, ularning o‘shish bosqichlariga bog‘liq ravishda to‘planish dinamikasi o‘rganilgan. Mediasia Macrophylla Pimen efir moyida metileugenol va trans-ligustilid yuqori konsentratsiyada ekani aniqlangan. Lavandula angustifolia efir moyi tarkibida esa L-kamfora va linalool dominant ekani qayd etilgan bo‘lib, bu moyning antibakterial va yallig‘lanishga qarshi xususiyatlariga sabab bo‘ladi. Tadqiqot natijalari efir moylarining fizik-kimyoviy xususiyatlarini, ularning optimal ajratish sharoitlarini va farmatsevtika, kosmetika hamda oziq-ovqat sanoatidagi qo‘llanilish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan.

**Melissa Officinalis L. o‘simlikining yer ustki qismi gidrodistillatining kimyoviy tarkibini GC-MS analizi.** Melissa officinalis L. o‘simligining yer ustki qismlari distillatsiya uskunasi joylashtirilib, bug‘ distillatsiya jarayoni amalga oshirildi. Bu jarayonda o‘simlik orqali o‘tuvchi bug‘ uchuvchan komponentlarni ajratib, keyinchalik kondensatsiyalanib, gidrodistillat sifatida yig‘ildi. Olingan gidrodistillatning kimyoviy tarkibini analiz qilish uchun GC-MS usulidan foydalanildi. Namuna tayyorlash jarayonida gidrodistillat geksan yordamida ekstraksiya qilindi, bu esa analiz uchun optimal sharoitlarni ta’minladi.

Melissa o‘simligining yer ustki qismi gidrodistillatining xromatogrammasi 3-rasmda keltirilgan.





### 3-rasm. *Melissa officinalis* L. o‘simligi gidrodistillatining xromatogrammasi

GC-MS analizi natijasida *Melissa* efir moyining kimyoviy tarkibi aniqlanib, 20 ta asosiy komponentlar, jumladan, 1,4-Dioksaspiro[4,5]dekan-7-butanoik kislota, 6-metil-, 2-(metilsulfoniloksi)etil ester va efir moyining muhim qismini tashkil etuvchi 2-oktadeka-9,12-dienoksietanol kabi birikmalar mavjudligi qayd etildi. Ushbu ma’lumotlar *Melissa* efir moyining potentsial terapevtik xususiyatlari va uning tibbiyot, farmatsevtika hamda kosmetologiya sohalaridagi qo‘llanilish imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganish uchun muhim asos yaratadi.

**Mediasia *Macrophylla* Pimen o‘simlaridan olingan efir moyi GC-MS analizi.** *Mediasia macrophylla* Pimen o‘simligidan ajratilgan efir moyining kimyoviy tarkibi YL6900 GC-MS uskunasi yordamida analiz qilindi. Tadqiqotda HP-5 kapillyar kolonka (30 m × 0,25 mm × 0,25 mkm) ishlatildi. Dastlabki harorat 60 °C da 2 daqiqa davomida ushlab turilib, keyin 10 °C/min tezlikda 280 °C ga ko‘tarildi va 5 daqiqa davomida izotermik sharoitda saqlandi. Injektor harorati 250 °C, in’ektsiya hajmi 1 µl bo‘lib, namuna geksan bilan 1:100 nisbatda suyultirildi. Tashuvchi gaz sifatida geliy qo‘llanilib, oqim tezligi 1,0 ml/min ni tashkil etdi. Analiz skanerlash diapazoni 40–500 amu bo‘lib, ionlanish manbai sifatida 70 eV energiyali elektron ta’siri usuli qo‘llanildi. Ion manbai harorati 230 °C edi. Massa spektrlari NIST va AMDIS kutubxonalari bilan taqqoslanib, sifat tarkibi alkan standartlari (C<sub>8</sub>–C<sub>20</sub>) yordamida hisoblangan ushlanish indeksleri (Kovacs) asosida tasdiqlandi. *Mediasia macrophylla* Pimen efir moyining olingan xromatogrammasi 4-rasmda keltirilgan.

*Mediasia macrophylla* Pimen efir moyi murakkab kimyoviy tarkibga ega bo‘lib, 25 ta asosiy birikma aniqlangan. Dominant komponentlari metileugenol (46,28%), trans-ligustilid (11,66%) va geranil asetat (7,45%) bo‘lib, ularning yuqori miqdori moyning biologik faolligi va aromatik xususiyatlarini belgilaydi. Tarkibidagi fenilpropanoidlar, terpenlar va fenollar moyning antibakterial, yallig‘lanishga qarshi va antioksidant xususiyatlarini ta’minlaydi, bu esa uni farmatsevtika, kosmetologiya va aromaterapiyada istiqbolli qiladi. Geranil asetat, bornilatsetat va fenchilasetat kabi birikmalarning xiral markazlarga egaligi aniqlanib, ularning optik izomerlari moyning biologik ta’siri va aromatik xususiyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi ta’kidlanadi.






Reaksiya HMG – CoA reduktazaI fermenti ishtirokida amalga oshib, uning kinetik tenglamasi (Mixaelis-Menten tenglamasi) quyidagicha ifodalanadi:

$$\vartheta = \frac{\vartheta_{\max} [S]}{K_m + [S]}, \quad (2)$$

bunda  $\vartheta$  - reaksiya tezligi,  $\vartheta_{\max}$  - maksimal tezlik,  $[S]$ -substrat konsentratsiyasi,  $K_m$  – Mixaelis-Minten doimiysi.


Terpenlarning hosil bo‘lishi. Linalool, limonen, va alfa-pinen kabi moddalar monoterpenlar ( $C_{10}H_{16}$ ) sinfiga kiradi. Ularning hosil bo‘lishi tezkor va odatda ilk bosqichda amalga oshadi, ya’ni IPP va DMAPP birlashib, geranil pirofosfat (GPP) hosil qiladi. O‘z navbatida geranil pirofosfatdan monoterpenlar (limonen, linalool, va alfa-pinen) sintezlanadi:



Reaksiyani amalga oshirishning birinchi bosqichida GPP sintaza fermenti, ikkinchi bosqichida esa Siklaza fermentlari katalizatorlik qiladi. Reaksiyaning birinchi bosqichining kinetik tenglama quyidagicha:

$$\vartheta = \frac{\vartheta_{\max} [GPP]}{K_m + [GPP]}, \quad (3)$$

Seskviterpenlar ( $C_{15}H_{24}$ ) sintezida  $\beta$ -kariofillen va farnezen kabi moddalar keyingi bosqichda sintezlanadi, chunki ular ko‘proq izopren birliklarini talab qiladi. Bunda geranil pirofosfat (GPP)dan farnezil pirofosfat (FPP) hosil bo‘ladi. FPPdan seskviterpenlar (beta-kariofillen va farnezen) sintezlanadi, ya’ni:



Reaksiya ikki bosqichda amalga oshadigan fermentativ reaksiyadir. Uning birinchi bosqich bo‘yicha kinetik tenglamasi:

$$\vartheta = \frac{\vartheta_{\max} [FPP]}{K_m + [FPP]}, \quad (4)$$


Spirtlar va aldegidlar, jumladan geraniol va sitral kabi birikmalar monoterpenlarning oksidlanish yoki qayta guruhlanishi natijasida hosil bo‘ladi. Bunda geranil pirofosfatning (GPP) oksidlanishi orqali geraniol va sitral hosil bo‘ladi.



Oksidlanish mahsulotlari geraniol va sitral bo‘lib, reaksiyaning geranil pirofosfat bo‘yicha kinetik tenglama:

$$\vartheta = \frac{\vartheta_{\max} [GPP]}{K_m + [GPP]}, \quad (5)$$

Efirlar, spirtlarni atsetillanishdan, jumladan linalool atsetillaza fermenti yordamida linalool atsetat hosil bo‘ladi:




Reaksiyaning linalool bo‘yicha kinetik tenglama:

$$\vartheta = \frac{\vartheta_{\max} [\text{Linalool}]}{K_m + [\text{Linalool}]}, \quad (6)$$

Shunday qilib, har bir moddaning hosil bo'lishi fermentativ reaksiya bo'lib, ularning kinetikasi Mixaelis-Menten tenglamasi bilan ifodalanadi.

Melissa officinalis L. da efir moyining ulushi vegetatsiya davrida sezilarli darajada farqlanadi. Oylar bo'yicha Melissa officinalis L. tarkibida efir moyining to'planishi, % 6-rasmda keltirilgan.



### 6-rasm. Melissa officinalis L. o'simligida efir moyi oylar bo'yicha to'planishi

6-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bahorda, o'simlikning uyg'onishi bilan uning darajasi minimal va 0,5% dan kam bo'lib, may oyiga qadar asta-sekin 1,5% gacha ko'tariladi. Iyun oyida gullash boshlanishi bilan efir moy miqdori 1,5-3% ga yetadi va gullashning eng yuqori cho'qqisida, iyul oyida u maksimal 2-3,5% ga yetishi mumkin. Keyin avgust oyidan boshlab konsentratsiya asta-sekin 1,5-2,5% gacha, sentyabrda - 1-2% gacha, oktyabr va noyabr oylarida esa 0,5-1% gacha kamayadi. Qish mavsumida, o'simlik harakatsiz bo'lganda, efir moy darajasi minimal bo'ladi - 0,5% dan kam. Ushbu mavsumiy dinamika o'sish fazalari, atrof-muhit sharoitlari va o'simlikning ichki biokimyoviy jarayonlari o'rtasidagi yaqin aloqani aks ettiradi.

Efir moyining komponentlar bo'yicha sifat va miqdoriy tarkibi GC-MS usulida o'rganildi. Olingan natijalar asosida efir moyi tarkibidagi asosiy 9 ta komponentlar bo'yicha ularning to'planishi oylar bo'yicha o'rganildi. Bunda miqdoriy ko'rsatgich sifatida komponentlarning efir moy tarkibidagi ulushi olindi. Olingan natijalar 1-jadval keltirilgan.

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Melissa officinalis L. efir moyining asosiy komponentlari sitral (geranial va neral), geraniol, linalool, linaloil asetat, beta-karyofilin, farnesen, terpineol va limonen mavsumiy dinamikaga ega. Efir moyi hidini aniqlaydigan sitral o'simlikning faol gullash davrida (iyun-iyul) maksimal konsentratsiyaga yetadi. Geraniol barqaror bo'lib, gullashdan keyin asta-sekin kamayadi. Linalool may-iyun oylarida eng yuqori darajaga chiqib, avgustdan pasayadi. Linaloil asetat faol o'sish davrida ortadi, beta-karyofilin va farnesen esa yozda ko'p sintezlanib, kuzda kamayadi. Terpineol va limonen ham yozda eng yuqori miqdorga yetib, alfa-pinen va boshqa terpenlar kabi keyinchalik pasayadi. Natijada, efir moyi

komponentlarining eng yuqori miqdori iyun-iyul oylarida kuzatilib, kuzda esa ularning konsentratsiyasi kamayadi.

### 1-jadval

#### Melissa officinalis L. efir moyi komponentlari oylar bo'yicha tarkibidagi o'zgarishlar (efir moyiga nisbatan %)

Komponent	Mart	Aprel	May	Iyun	Iyul	Avqust	Sentyabr	Oktyabr	Noyabr	Dekabr
Sitral (geranial + neral)	10	15	20	35	40	30	20	15	12	8
Geraniol	5	6	8	10	8	6	5	4	3	2
Linalool	6	7	10	8	6	7	8	7	5	4
Linaloil asetat	2	3	4	4	3	3	2	2	1	1
Beta-karyofilin	1	2	2	3	3	2	2	2	2	1
Farnezen	0,5	1	1,5	2	2	1,5	1	1	0,8	0,5
Terpineol	0,5	1	1	1	1	0,8	0,8	0,7	0,6	0,4
Limonen	1	1	1,5	2	2	1,5	1	0,8	0,6	0,5
Terpenlar (shu jumladan alfa-pinen)	0,8	1	1	1	1	1	0,8	0,7	0,5	0,3

Efir moyi komponentlarining to'planish dinamikasi ikkinchi darajali polinom modeliga mos keladi. Shu sababli, 1-jadvaldagi natijalar asosida komponentlar to'planishining matematik modellari polinom shaklida hisoblandi. Modellar komponent miqdorining oylarga bog'liqligi ko'rinishida tuzilib, bog'liqlik darajasini baholash uchun korrelyatsiya koeffitsientining kvadrat qiymati ( $r^2$ ) hisoblandi. Olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

### 2-jadval

#### Melissa officinalis L. efir moyi asosiy komponentlarining oylar bo'yicha to'planish dinamikasining matematik modellari

Komponent	$y = a \cdot x^2 + b \cdot x + c$			Korrelyatsiya koeffitsiyenti ( $r^2$ )
	$a$	$b$	$c$	
Sitral (geranial + neral)	-1,20	12,53	-2,03	0,987
Geraniol	-0,20	1,69	4,12	0,942
Linalool	-0,12	1,10	5,58	0,953
Linalil asetat	-0,08	0,68	1,97	0,930
Beta-kariofillen	-0,05	0,51	2,03	0,928
Farnesen	-0,04	0,42	1,61	0,921
Terpineol	-0,04	0,34	1,25	0,915
Limonen	-0,03	0,31	1,04	0,910
Terpenlar (shu jumladan alfa-pinen)	-0,02	0,23	0,85	0,905

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, efir moyi tarkibidagi asosiy komponentlar bo'yicha olingan matematik modellar yuqori korrelyatsiya koeffitsientiga ega bo'lib, adekvat hisoblanadi. Ushbu modellardan komponentlarning oylar bo'yicha to'planishini bashoratlashda foydalanish mumkin. Berilgan moddalarning o'simlik organizmida hosil bo'lish ketma-ketligini aniqlash uchun ularning biosintez jarayoniga e'tibor qaratish zarur. Efir moylarini tashkil etuvchi moddalar izopren birliklaridan

hosil bo‘lib, terpenlar biosintezi asosiy mexanizm hisoblanadi. Shu sababli, efir moyi tarkibiga kiruvchi moddalarning hosil bo‘lish mexanizmini bosqichma-bosqich o‘rganish va o‘simlik organizmidagi jarayonlarni, jumladan, efir moyi sintezini chuqurroq analiz qilish muhimdir.

**Melissa Officinalis L. efir moyi ayrim komponentlarining adsorpsiyasi termodinamikasi.** Melissa Officinalis L. efir moyining uchta komponenti adsorbsiyasining termodinamik parametrlari 3-jadvalda keltirilgan.


**3-jadval**

**HP-5 statsionar fazasida ba’zi efir moylari komponentlari uchun adsorbsion entalpiya ( $\Delta H$ ), entropiya ( $\Delta S$ ) va Gibbs energiyasi ( $\Delta G$ ) qiymatlari**

Komponent	$\Delta H_{298}$ , kJ/mol	$\Delta S_{298}$ , j/(K·mol)	$\Delta G_{298}$ , kJ/mol
Sitronellal	-3,64	15,66	-8,31
Geraniol	-3,60	13,78	-7,71
Neral	-3,62	16,41	-8,51

Uch komponent uchun adsorbsiya entalpiyasining manfiy qiymatlari (-3,60 dan -3,64 kJ/mol gacha) jarayonning ekzotermik xususiyatini va HP-5 statsionar fazasi bilan o‘zaro ta’sir davomida issiqlik ajralishini tasdiqlaydi. Adsorbsion entalpiya qiymatlaridagi kichik farqlar esa komponentlarning statsionar faza bilan o‘zaro ta’siridagi o‘xshashlikni ko‘rsatadi. Barcha komponentlar uchun musbat entropiya qiymatlari (13,78 dan 16,41 J/(K·mol) gacha) adsorbsiya jarayonida tizim tartibsizligining oshishini va molekulalarning yanada xaotik taqsimlanishini ifodalaydi. Yuqori entropiya qiymatlari (masalan, neral) statsionar faza bilan kuchli o‘zaro ta’sirni bildiradi. Gibbs energiya qiymatlarining manfiyligi ( $\Delta G$ ) esa 298 K haroratda adsorbsiya jarayonining o‘z-o‘zidan sodir bo‘lishini tasdiqlaydi. Eng spontan jarayon neralga tegishli ( $\Delta G = -8,51$  kJ/mol), geraniol esa eng past ( $\Delta G = -7,71$  kJ/mol) qiymatiga ega bo‘lib, nisbatan kamroq spontan jarayonni ifodalaydi. Shu sababli, ba’zi komponentlarning adsorbsiya jarayoni ekzotermik bo‘lib, tizim tartibsizligining ortishi va jarayonning o‘z-o‘zidan sodir bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

**Efir moylarining mikrobiologik faolligini baholash.** Tadqiqot uchun 12 ta namuna olindi: 1–7-namunalar Achillea filipendula, 8-namuna Mentha spicata, 9–11-namunalar turli muddatlarda (17.05.2024, 18.06.2024, 25.07.2024) Melissa officinalis L., 12-namuna esa ferula sumbul o‘simligidan ajratilgan efir moylari. Escherichia coli, Bacillus subtilis va Staphylococcus aureus shartli patogen bakteriyalariga nisbatan antagonistik xususiyatlar disk-diffuziya usuli yordamida o‘rganildi. Olingan natijalar 7-rasmda keltirilgan.



**7-rasm. Ba'zi efir moylarining *Escherichia coli*, *Bacillus subtilis* va *Staphylococcus aureus* shartli patogen bakteriya shtammlariga nisbatan antibakterial xususiyati**

Tadqiqot natijalariga ko'ra: *Escherichia coli* ga nisbatan 2,3,4,6,7,8 va 11-namunalarning antibakterial faolligi aniqlandi. *Bacillus subtilis* ga nisbatan 1,2,3,4,5,6 va 7-namunalar antibakterial ta'sir ko'rsatdi. *Staphylococcus aureus* ga qarshi 1,3,4,5,6,7 va 8-namunalar antibakterial xususiyatga ega ekanligi kuzatildi. 8–12-namunalarda *Bacillus subtilis* ga, 2,9,10,11 va 12-namunalarda *Staphylococcus aureus* ga nisbatan antibakterial faollik qayd etilmadi. 9- va 10-namunalarning *Escherichia coli* va *Staphylococcus aureus* ga qarshi ta'siri aniqlanmagani, ularning ushbu bakteriyalarga nisbatan samarador emasligini ko'rsatdi. 11-namunaning *Escherichia coli* ga nisbatan antibakterial faolligi qayd etilgan bo'lsa-da, *Bacillus subtilis* va *Staphylococcus aureus* ga qarshi ta'sir ko'rsatmagani uning ta'sir spektrining cheklanganligini bildiradi.

Umuman olganda, *Melissa officinalis* dan olingan 9-, 10- va 11-namunalar antibakterial faollik bo'yicha farqli natijalar ko'rsatib, ularning ta'siri ma'lum bakteriyalarga nisbatan spetsifik ekanligini tasdiqladi. Ayniqsa, 11-namunaning *Escherichia coli* ga qarshi ta'siri kelgusida chuqur o'rganishni talab qiladi. Antibakterial xususiyatga ega efir moy namunalari oziq-ovqat xavfsizligi, tibbiy antiseptiklar, sanitar-gigienik vositalar va biotexnologik jarayonlarda amaliy qo'llash uchun tavsiya etiladi.

**Shunday qilib**, GC-MS usuli orqali *Melissa officinalis* L. o'simligining yer ustki qismidan olingan gidrodistillatning kimyoviy tarkibi analiz qilindi. Natijada, asosiy komponentlar sifatida sitral,  $\beta$ -kariofillen va germakren D aniqlandi. Ushbu moddalarning mavjudligi *Melissa officinalis* L. o'simligining potensial farmakologik xususiyatlarini ko'rsatadi. *Mediasia macrophyla* Pimen o'simligidan olingan efir moyi GC-MS usulida analiz qilindi. Analiz natijalari efir moyining asosiy komponentlari sifatida  $\alpha$ -pinen, limonen va  $\beta$ -pinenni ko'rsatdi. Bu moddalar efir moyining antibakterial va antioksidant xususiyatlariga hissa qo'shishi mumkin. GC-MS usuli orqali *Lavandula angustifolia* o'simligidan olingan efir moyining kimyoviy tarkibi o'rganildi. Natijada, asosiy komponentlar sifatida linalol, linalilatsetat va kamfor aniqlandi. Bu moddalar efir moyining tinchlantiruvchi va stressni kamaytiruvchi

ta'sirlarini tushuntirishi mumkin. *Melissa officinalis* L. o'simligida efir moyining to'planish jarayoni o'rganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, efir moyining maksimal konsentratsiyasi o'simlikning gullash davrida kuzatildi. Bu ma'lumotlar efir moyini yig'ish uchun eng maqbul vaqtni belgilashda muhim ahamiyatga ega. *Melissa officinalis* L. efir moyining ayrim komponentlarining adsorbsiya jarayonining termodinamik parametrlari o'rganildi. Natijalarga ko'ra, adsorbsiya jarayoni spontan va ekzotermik xususiyatga ega bo'lib, bu komponentlarning turli yuzalarda adsorbsiyalanish qobiliyatini ko'rsatadi. Turli o'simliklardan olingan efir moylarining mikrobiologik faolligi baholandi. Natijalar efir moylarining ayrim bakteriya va zamburug' shtammlariga qarshi samarali ingibitsiya ta'siriga ega ekanligini ko'rsatdi. Bu ularning potensial antimikrob vosita sifatida qo'llanish imkoniyatini tasdiqlaydi.

## XULOSALAR

1. Ilk bora kross-diffuziya qo'llanilib, xromatografik ajralish jarayonlarining matematik modeli ishlab chiqildi, uning adekvatligi baholandi.

2. Komponentlarning qaynash temperaturalari yaqin bo'lgan holatlarda ajralish jarayoniga kross-diffuziyaning sezilarli ta'sir ko'rsatishi va ajratish sifatini oshirishga olib kelishi hamda aralashma xromatogrammasini shakllantirishga imkon berishi isbotlandi. Bu esa murakkab tarkibli aralashmalar, jumladan efir moylarini tashkil etuvchi komponentlarga ajratish va aniqlah sharoitlarini maqbullashtirishga olib keldi.

3. GC-MS usuluda *Melissa officinalis* L., *Mediasia macrophyla* Pimen va *Lavandula angustifolia* o'simliklaridan ajratilgan efir moylarining kimyoviy tarkibi mos ravishda 20, 25 va 34 ta komponentlardan iboratligi aniqlandi. Aniqlangan komponentlardan ba'zilarining (sital,  $\beta$ -kariofillen,  $\alpha$ -pinen, linalol va boshqalar) *Escherichia coli*, *Bacillus subtilis* va *Staphylococcus aureus* shartli patogen bakteriya shtammlariga nisbatan antibakterial xossalari baholandi.

4. Efir moylarining asosiy biofaol komponentlarining fermentativ jarayonlar natijasida hosil bo'lishi va ularning, jumladan, sitral, linalol va  $\alpha$ -pinen moddalarining ko'p miqdorda o'simlikning muayyan rivojlanish fazasida to'planishi parabola tenglamasiga mos kelishi ( $r^2 > 0,9$ ), ya'ni gullash davrida to'planishning maksimal darajasi kuzatilishi isbotlandi.

5. HP-5 turg'un fazadagi efir moyi tarkibidagi ayrim komponentlari sorbsiyasining termodinamik funrtsiyalari ( $\Delta H < 0$ ,  $\Delta S > 0$ ,  $\Delta G < 0$ ) kichik qiymatlarida o'zgarishi bilan borishi aniqlandi.

6. *Melissa* efir moyining ajratilishi va undan antiseptik suv tayyorlash texnologiyasi O'zbekiston-Turkiya MCHJ "Ahmad Isroil Tex" qo'shma korxonada amaliyotga joriy etildi. Natijada, bu import o'rnini qoplovchi mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarishga, eksport salohiyatini oshirishga va mahalliy ehtiyojni qondirishga zamin yaratadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.K.02.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ Ш. РАШИДОВА**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

**НАЙИМОВА БАХОРА КОМИЛЖОНЗОДА**

**ИЗУЧЕНИЕ КИНЕТИКИ ОБРАЗОВАНИЯ ЭФИРНЫХ МАСЕЛ У  
РАСТЕНИЯ МЕЛИССА МЕТОДОМ GX-МС**

**02.00.04 – Физическая химия**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2024.2.PhD/K766.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете имени Ш.Рашидова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Ученого совета по адресу [www.samdu.uz](http://www.samdu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz)).

Научный руководитель:

Мухамадиев Нурали Курбаналиевич  
доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Эшмаматова Нодири Бахрамовна  
доктор химических наук, доцент

Матчанов Алимжан Давлатбаевич  
доктор химических наук, профессор

Ведущая организация:

Институт химии растительных веществ  
им. акад. С.Ю. Юнусова АН РУ

Защита диссертации состоится «29» мая 2025 года в 13<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.K.02.05 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова. По адресу: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом 15, Института Биохимии, Химический корпус, 220 кабинет. Тел.: (99866)239-11-40; Факс: (99866) 239-11-40. E-mail: [devonxona@samdu.uz](mailto:devonxona@samdu.uz).


Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (зарегистрировано за № 44. Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар дом 15, ИРЦ (Фундаментальная библиотека СамГУ) Тел.: (99866)239-11-51.

Автореферат диссертации разослан «19» мая 2025 года.  
(реестр протокола рассылки № 3 от «19» мая 2025 г).



  
А.М.Насимов  
Председатель научного совета по  
присуждению учёных степеней,  
д.т.н., профессор

  
Ж.Р.Узоков  
Ученый секретарь научного  
совета по присуждению учёных  
степеней, PhD

  
О.Н.Рузимурадов  
Председатель научного семинара  
при Научном совете по  
присуждению учёных степеней

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** Хроматография как метод разделения, качественного и количественного анализа и исследования признана одним из величайших открытий XX века. Её значение в разделении веществ в чистом виде и анализе многокомпонентных сложных смесей является непревзойдённым. В настоящее время анализ сложных по составу синтетических и природных смесей в таких областях, как химия, нефтехимия, фармацевтика, экология и медицина, осуществляется с использованием метода ГХ-МС (газовая хроматография – масс-спектрометрия). Кроме того, производство оборудования для хроматографии стало одной из самых прибыльных отраслей. Непрерывность хроматографических процессов создала возможности для автоматизации. Вместе с тем, совершенствование метода, разработка его новых вариантов и расширение возможностей применения остаются актуальными и важными задачами.

В мире достигнуты значительные успехи в разработке теоретических основ хроматографических процессов, их моделировании и оптимизации. В результате проведённых исследований были созданы точные и эффективные модели хроматографических процессов и решены многие проблемы в области хроматографии. В частности, на научной основе изучен состав биологически активных веществ, входящих в состав эфирных масел, выделенных из растений, и дана оценка их химического состава и терапевтических свойств. Несмотря на то, что разработано множество моделей хроматографических процессов, основанных на диффузии, большинство из них не учитывают взаимное влияние компонентов смеси и неподвижной фазы. В связи с этим модель кросс-диффузии, учитывающая такие взаимодействия, представляет особый интерес для исследователей с точки зрения возможности точного моделирования.

В Республике проведён значительный объем работ по моделированию и оптимизации хроматографических процессов, разработке методов анализа сложных по составу синтетических и природных соединений, созданию диагностических критериев в медицине, а также по изучению состава эфирных масел. В стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан<sup>3</sup> определены важные задачи по «производству готовой продукции с высокой добавленной стоимостью на основе глубокой переработки местного сырья, освоению принципиально новых видов продукции и технологий, на этой основе обеспечение конкурентоспособности национальных товаров на внутреннем и внешнем рынках». Также в этой связи, в соответствии с семью приоритетами Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы, поднятие уровня медицинского обслуживания населения на новый уровень, «Развитие химической и газохимической промышленности и повышение уровня переработки природного газа с 8% до 20% определены такие задачи<sup>4</sup>. Поэтому моделирование хроматографических процессов с использованием кросс-

---

